

AMARANTDOSHLAR OILASIGA MANSUB AYRIM DORIVOR O'SIMLIKLARNING FOYDALI XUSUSIYATLARI

Abduxalilova Madinaxon Abdurayim qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti, Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, biologiya
yo'nalishi ikkinchi bosqich talabasi E-mail: madinaxonabduxalilova@mail.ru*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada AmarantdosHLar oilasiga mansub bo'lgan ayrim dorivor o'simliklar va mazkur o'simliklarning foydali xususiyatlari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Salsolin, spazm, gipertoniya, oblepixa, rak.*

Абстрактный: *В данной статье рассказывается о некоторых лекарственных растениях, принадлежащих к семейству Амарантовых, и о полезных свойствах этих растений.*

Ключевые слова: *Сальсолин, спазм, гипертония, облепиха, рак.*

Abstract: *This article talks about some medicinal plants belonging to the Amaranth family and the useful properties of these plants.*

Keywords: *Salsolin, spasm, hypertension, oblepikha, cancer.*

Hozirgi kunda jahon bozorida dorivor o'simliklarga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Respublikamizda so'ngi yillarda dorivor o'simliklarni muhofaza qilish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o'simliklarni yetishtiradigan plantatsiyalarni tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda amarant o'simligiga katta e'tibor berilib, o'simlikni yetishtirishga doir ko'plab tajribalar olib borilmoqda. Amarant o'simligi amarantdosHLar oilasiga kiruvchi o'simlik bo'lib mazkur oilaga yana cherkez o'simligi ham kiradi ushbu o'simliklar foydali xususiyatlarga nihoyatda boy hisoblanadi.

Cherkez - baland bo'lyli buta yoki daraxt. Po'stlog'i ochiq kulrang va yoyilgan novdalari qaymoqsimon rangda. Barglari silindrsimon, ketma-ket, uzunligi 40-80 mm, deyarli ipsimon, uchi qisqa o'tkirlashgan, poyaga tutashgan joyi kengaygan.

Gullari oddiy besh bargli gulqo'rg'ondan iborat, to'g'ri, asosan yuqoridagi barglarning burchaklarida joylashgan, tuxumsimon gulyonbarglardan biroz uzunroq, gulqo'rg'on barglari mevada yirik qanotli, dastlab pushti rangda, keyin rangsiz bo'ladi.

Mevasi bir urug'li, yumaloq o'troq, qanotchali yong'oqcha. Maydan oktyabrgacha gullab, iyul-avgust oylarida mevalaydi.

O'simlikdan tayyorlangan preparatlar gipotenziv, tinchlantiruvchi, tomir kengaytiruvchi va og'riq qoldiruvchi xususiyatlarga ega.

Salsolin va salsolidin gipertoniya, bosh og'rig'i va bosh miya tomirlarining spazmini davolash uchun ishlatiladi. Salsolin tinchlantiruvchi ta'sirga ega. Salsolidin ham shu ta'sirga ega, ammo salsolinga qaraganda 3 marta kuchsizroq. Yaqindan beri gipertoniyani davolashda salsolin va salsolidin moddalarini 70% li spirtga 1/5

nisbatda nastoykasidan qon bosimining oshishi, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, asab tufayli vujudga kelgan yurak sohasidagi og'riqlarni davolashda ishlatilib kelinmoqda.



Amarant - Bo'yi 2-3 metr keladigan bir yillik o't o'simlik. Poyasining yo'g'onligi 8-10 sm, bargi cho'ziq va ellipssimon bo'lib, poyaga uzun bandi bilan ketma-ket joylashgan.



Gullari mayda, ko'rimsiz bo'lib, yirik yarim metrgacha boradigan supurgisimon gul to'plamini hosil qiladi.

Urug'i mayda sharsimon qo'ng'ir yoki sariq rangda bo'lib, 1000 donasining vazni 0,4-0,6 gr keladi. Bir tup o'simlik 0,5 - 45 kggacha urug' berishi mumkin. Urug'ining osti yaltiroq bo'ladi. Iyun oyida gullaydi, urug'i iyulda yetiladi.

Amarant moyi me'da va ichak yaralarini davolash xususiyatiga ega bo'lib, teri kasalliklari, qirqilgan yaralarni bitishini tezlashtirish uchun va nur kasalligi bilan og'riqan bemorlarni davolashda qo'llaniladi. Uning moyi oblepixa moyidan

qolishmaydi va shuning uchun bir qator kasalliklarni davolashda ishlatilib kelinmoqda. Amaraning urug'i tibbiyotda rak kasalligidan hosil bo'lgan xavfli o'smalar o'sishini oldini olish va so'rilib ketishiga yordam beradi.

Hozirgi kunda tabiiy holda o'sayotgan dorivor o'simliklarning soni inson omili ta'sirida kamayib bormoqda. Buning o'rnini to'ldirish hamda xalqimiz ehtiyojini qondirish maqsadida dorivor o'simliklar turlarini ko'paytirish, dorivor o'simliklarni ekib o'stiradigan fermer va ixtisoslashgan xo'jaliklarni tashkil qilish va ko'paytirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

[1]. O.K. Xojimatov., X.Q. Haydarov., D.T. Xamraeva., va boshq. O'zbekiston dorivor o'simliklar atlas. Samarqand. SamDU nashriyoti, 2021.

[2]. M.A.Jo'rayeva. Dorivor o'simliklar atlas. Toshkent. Noshir. 2019.

[3]. Ahmedov O', Ergashev.A, Abzalov A. va boshqalar. Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya. Toshkent. Tafakkur-bo'stoni.2018.

[4] F. B. Sayramov. Xalq tabobati va rasmiy tibbiyotning rivojlanishida dorivor o'simliklarning tutgan o'rni va dorivor o'simlikshunoslikning rivojlanishi// O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar. № 17. 2023.